



**SPUJMAY ZARYOBNING "TILLA UZUK" ("انگشتر طلا") HIKOYASIDA SYUJET
VA KONFLIKT YARATISH USLUBI**

Narzullayeva Shahlo Salaydinovna

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik
fakulteti Adabiyotshunoslik (dariy) guruhi 1-bosqich magistranti*

A.M.Mannonov

Ilmiy rahbar: F.f.d., professor

Annotatsiya: Maqolada Spujmay Zaryobning "Tilla uzuk" ("انگشتر طلا") hikoyasida syujet va konflikt yaratish uslubi haqida soz yuritiladi. Yozuvchining syujet va konflikt yaratish borasidagi badiiy mahorati tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: hikoya, sujet, konflikt, kompozitsiya, personaj, xarakter, dialog, obrazlar.

Spujmay Zaryob ijodining ilk paytlarida u an'anaviy uslubda hikoyalar yozib, jamiyatdagi norasolikni, mulkiy tengsizlik tufayli yuzaga keladigan muammolarni ko'tarib chiqqan edi. Adibaning shunday hikoyalaridan biri "Tilla uzuk" deb ataladi.¹ Ushbu hikoya 1984-yil Kobulda nashr qilingan bo'lib, hikoyada bir nochor oilaviy sharoit yoritiladi. Hikoya kichik bir asar bo'lsada, undagi hayotiy voqealar, turmush sinovlari, Husayn va uning onasi o'rtasidagi oilaviy munosabatlar, bir mushtipar ayolning hayot atalmish bog'ning sinovli so'qmoqlarida boshidan kechirayotgan dardli kunlari juda chuqur va mazmunli yoritilgan.

Hikoyaning bosh qahramoni farzandlariga o'zi yolg'iz boshi bilan ham ota, ham ona bo'lib oilasini boqayotgan, ro'zg'or tirikchiligin o'tkazayotgan oddiygina mehnatkash, ma'suma bir ayol, Husaynning onasi. Bu hikoyada ayolning o'rni va obrazi shunchalik sodda, samimiyligini qilib yaratilganki, yozuvchi unga hattoki alohida nom ham bermagan. Uning soxtaliklarsiz, samimiyligini to'la ko'ngli, pok qalbi butun hikoyaning asl ma'nosini va mazmunini tashkil etadi.

Unga qarshi qo'yilgan obraz ma'nani o'ta qashshoq va tuban bo'lgan boy oilaning bekasi, "semiz xotin". O'zi ayol bo'lsada, qalbida ayollik mehri va insoniyligi bo'lmagan bu shaxsning obraz va xarakteri asarda nursiz nigohlar bilan tasvirlangan.

Taniqli adibaning ushbu hikoyasini o'qir ekanmiz, asardagi voqealar rivojiga va undagi mungli kechinmalar daryosiga g'arq bo'lamicha. Spujmay Zaryob ushbu hikoyani o'ziga xos mehrli ayol ko'ngli bilan tasvirlagani bois, o'quvchi o'zi bilib bilmay ushbu asarga mahliyo bo'ladi. Asar janr jihatidan kichik bir hikoya bo'lsada, mazmun nuqtai nazaridan ulkan bir roman kabitidir. O'z navbatida, hikoyadan parchalar keltirib o'tamiz.

¹ Inomxo'jayev R. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti (XIX asr oxiri – XX asr). TDSHI. T – 2018. 206 – b.



صبح بود، زن چادر داکه اشرا دور سرش پیچید و خاکروبه را از پنجره خانه در کوچه ریخت. این خانه مثل بسیاری از خانه های این شهر در کوچه تنگ و پر جمعیت قرار دارد که وقتی سررا از پنجره اش بیرون گشتد تن تراش ترین تلاشها و پایان ناپذیرترین جدالها بین مرک و زنده گی دیده میشود.²

"Tong otdi. Ayol ro'molini boshiga o'rab, uyning derazasidan axlatni ko'chaga to'kdi. Bu uy shu shahardagi ko'plab uylar kabi tor va gavjum joyda joylashgan bo'lib, derazadan boshingizni chiqqargan vaqtingizda hayot va o'lim orasidagi eng mashaqqatli haroratlar va cheksiz mojarolar ko'rini turardi."

Hikoyada tasvirlangan konflikt Husaynning onasi bilan semiz xotin orasida yuz beradi. Husaynning onasi odamlarning uyini tozalab, kirini yuvib bolalariga rizq topadi, ularga kiyim-kechak, daftar-qalam olib beradi. Semiz xotin esa, ishlamaydi, uy ishlarini ham birovga qildiradi. U quv, insofsiz. Husaynning onasi kun bo'yи uning yumushlarini qilib ishini tugatganidan so'ng semiz xotin uni tilla uzugimni o'g'irlading, deb tuhmat qiladi, xizmat haqqi bermasdan haydab soladi. Uning o'g'li Usmon ham onasi yoniga qo'shilib Husaynning onasini masxaralaydi.³ Bu voqealar quyidagicha tasvirlanadi:

خودرا پشت در بزرگی یافت. در این خانه رخت میشست. زنجر دررا تکان داد و لحظه بعد پسر دوازده – سیزده ساله ای که لباس فیمتی و بد دوختی به تن داشت دررا باز کرد. وقتی آنرا دید ابرو در هم کشید و با آواز دورگه اش صدا زد:

- بوبو... زنکه کالاشوی آمد.

زن ساکت بود. همین پسر همیشه با زبانش نیشهای دردنگی به او میزد. آزارش میداد مثل این که از این آزarden لذت مستی میبرد.

زن با قدم های شمرده پیش رفت و پرده ضخیم زیبایی را بلند کرد.

- سلام علیک...

- وعلیکم، مادر حسین چقه ناوخت آمدی...

این صدای زن چاق و چله ای بود که پیراهن در تنش تنگی میکرد و مثل آن که همه روغن ها و گوشت ها در زیر پوست چربش جمع شده بود و ادامه داد:

- برو دیگه نشی، کالای چرك در تشناب اس.

با همین جمله خورد گشته زن دانست که کار سنگین آغاز یافته.

قادری اشرا کشید، به هم پیچید. کنار در تشناب قرار داد. آستین هایشرا بالا زد.⁴

"U katta eshik ortida edi. U bu uyda kir yuvardi. Eshikning zanjirini silkitdi va shu payt 12 yo 13 yoshli qimmatbaho va xunuk tikilgan libosdagi bir bola eshikni ochdi. U ayolni ko'rib, qoshlarini chimirib yoqimsiz ovozda: "onajon, kir yuvuvchi ayol kelibdi" dedi.

Ayol jim edi (sukut saqlardi). Shu bola har doim uni tili bilan chaqib olardi, ko'nglini og'ritardi. Xuddi bundan o'zi lazzat oladigandek, unga ozor berardi.

Ayol bir necha qadam tashladi va qalin, chiroyli paranjini ko'tardi:-Assalomu alaykum.

-Va alaykum assalom, Husaynning onasi, nega buncha kech qoldingiz?

² سپوژمی زریاب. شرنگ شرنگ زنگها. انگشتتر طلا. کابل. – ۱۳۶۲. ص - ۱۳.

³ Inomxo'jayev R. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti (XIX asr oxiri – XX asr). TDSHl. T – 2018. 206 – b.

⁴ سپوژمی زریاب. شرنگ شرنگ زنگها. انگشتتر طلا. کابل. – ۱۳۶۲. ص - ۱۴.



Bu ko'y lagi tanasiga tiqilib turadigan, go'yo barcha yog'lar va go'shtlar uning yog'li terisi ostida to'planib qolgan semiz bir ayolning ovozi edi.

U davom etdi: Bor boshqa bunday qilma. Kir kiyimlar hammomda. Ayol yeb qo'yuvchi bu so'zlardan og'ir ish kuni boshlanganini bilardi.

U paranjisini yechib hammom chetiga qo'yib qo'ydi, yengini ko'tardi.

Hikoyada shu tarzda voqealar rivoji davom etadi. Husaynning onasi kuni bilan uy ishlarini qiladi, timmay kir yuvadi. Ammo "eshakning ishi halol, o'zi xarom" deganlaridek, bechora ayol tuhmat toshlari ostida qoladi. Boy xonardonning semiz bekasi uning qilgan ishlariga haq to'lashdan qochib uni tilla uzugini o'g'irlashda ayblaydi va shu yo'l orqali uning mehnat haqqini bermaslikni mo'ljallaydi. Husaynning onasini kiyimlarini tekshiradi, lekin uzuk topilmaydi. Uni haqoratlab, pulini ham bermay, haydab yuboradi. Vaholanki, bu ma'suma ayolning ish haqi bor yo'g'i yigirma afg'oniy bo'lib, bu pulga u o'g'li Husaynjonga bir nechta daftar olib bermoqchi edi.

Spujmay Zaryob hikoyada Husaynning onasini tuhmat balosiga yoliqqa sahnasini shu darajada yuksak mahorat bilan tasvirlaydiki, beixtiyor ko'z o'ngingizda bir begunoh ayolning holati jonli tarzda gavdalaniadi.

- چى كدى انگشتىرى ره، او زن...

مادر حسين قوايش را جمع كرد و گفت:

- اگر مه دиде باشىم از دو دиде كور شوم... آخر مه ... پنج وخت نماز مىخانم، خداره بە يگانگى ياد مىكەن

مه چى طور...

بعض راه گلوپىشرا بست. جمله اش ناتمام ماند. رنگش سفید شده بود لبانش رنگ نداشتند. مثل بيد ميلز زيد.⁵

-Ey ayol, uzukni nima qilding...

Husaynning onasi kuchini yig'ib dedi:

-Agar men ko'rgan bo'lsam ikki ko'zim ko'r bo'lsin... Axir men...besh vaqt namoz o'qiyman, Xudoning yagonaligini bilaman...men qanday qilib...

Tomog'iga nimadir tiqildi. Gapi tugallanmay qoldi. Rangi oqarib ketgan edi, lablarida rang qolmadi. Xuddi majnuntoldek qaltirardi.

Bu voqeani tasvirlar ekan, yozuvchining xayrixohligi mehnatkash ayol tomonida ekani sezilib turadi. Hikoyada bosh rollarda harakat qilgan ikki ayolga nom berilmagani bunday personajlar tipik ekanligiga ishoradir.⁶

Zamonning qattiqligiyu, bechora ayolning yolg'izligini taqdirdan deb baholasak-da, halol mehnatlari evaziga tuhmatga qolganini adolatdan deb bo'lmaydi. Ammo ayolning sabr-u bardoshi bunga ham yetadi. Kichik bir hikoyada shuncha hayotiy haqiqatlarni yoritgan yozuvchi bu orqali ayolning qanchalik metin iroda egasi ekanligini ko'rsatib beradi. Bu kichik hikoyadagi sanoqli obrazlar orqali nafaqat insonlar tasvirlanadi, balki, ularning ichki dunyosi, qay darajada toza va qay darajada tubanlik botqog'iga botib borayotgani ko'z o'ngimizda yaqqol namoyon bo'ladi.

⁵ سپورىمى زرياب. شرنگ شرنگ زنگها. انگشتىر طلا. كابل. – ۱۳۶۲. ص - ۱۶.

⁶ Inomxo'jayev R. Afg'oniston dariyzabon adabiyoti (XIX asr oxiri – XX asr). TDSHl. T – 2018. 207 – b.



Hikoyada ayol kishining qanchalar mustahkam iroda sohibasi ekanligi, oilasi va farzandlari uchun har qanday ishni qilishga tayyorligi namoyon bo'ladi. Hattoki ko'tarish qiyin bo'lgan tuhmat balosiga ham chidaganligi tafsinga sazovordir. Bularning barchasi oilasi, farzandlarini jonidan ortiq yaxshi ko'rishiga yaqqol dalildir.

"Tilla uzuk" ("انگشت طلا") hikoyasining kompozitsiyasidan ko'rinish turibdiki, asar voqealari dialoglar orqali juda chiroyli tarzda ochib berilgan. "Dialoglar asar voqeligini rivojlantirishga, xarakterlarni ochishga xizmat qiladi"⁷. Asardagi Husaynning onasi va "semiz xotin" obrazlari asarning g'oyaviy konsepsiyasini aniqlab olish uchun xizmat qiladi. Ma'lumki, syujet ijodkorning badiiy maqsadiga muvofiq ravishda asarda berilgan voqeani ifodalaydi. Bunda voqealar ketma-ket, izchillik bilan yoritilmasligi mumkin. Chunki u muallifning badiiy niyati, asarning mantiqiy asosiga ko'ra ifodalanadi.⁸ Hikoyadagi Husaynning onasining pul topish uchun boshqa xonadonga borishi, u yerdagi uy yumushlarini qilishi tashqi harakat dinamikasi asosida, bosh qahramonning tushkun kayfiyati, jabrdiydalikdagi ko'z yoshlari ichki harakat dinamikasiga asoslangan syujetga ko'ra tasvirlangandir. Hikoyadagi Husaynning onasi va "semiz xotin" obrazlarini oladigan bo'lsak, ular bosh personaj bo'lib, ularning o'g'illari Husayn va Usmon yordamchi yoki ikkinchi darajali personajlar, ya'ni bosh personajga nisbatan tobe munosabatda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Inomxo'jayev R. Afg'oniston dariyabon adabiyoti (XIX asr oxiri XX asr). – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 372 b.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1986. – 406 b.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 263 b.
4. Асоев, Худойназар Формирование жанровой системы прозы Афганистана на языке дари (К вопросу типологии и национального своеобразия). Душанбе. Изд-во «Дониш»., 1988.
5. Solijonov Y., Karimov H. Tushda kechgan umrlar romanida obrazlar tizimi va syujet xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. –2022. december. –445 p.
6. Boltaboyeva U. Dramatik asarlarda konflikt // "Oriental Art and Culture" Sientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022. –150 p.
7. دارای هروی، فصیح الدین - فصیح الدین صاحب دارا. داستان نویسی در افغانستان. ادب فارسی در افغانستان/ ۳۸۲.

⁷ Solijonov Y., Karimov H. Tushda kechgan umrlar romanida obrazlar tizimi va syujet xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. december. – 445 p.

⁸ Solijonov Y., Karimov H. Tushda kechgan umrlar romanida obrazlar tizimi va syujet xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. december. – 445 p.



"MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



حبيب اسدالله. ادبیات دری در نیمه اول سده بیستم. کابل، ۱۳۶. سپوژمی زریاب. شرنگ زنگها. کابل - ۱۲ دلو ۱۳۶۲. .8 .9

10. <https://cyberleninka.ru/>
11. <http://www.wikiwand.com/ps/>
12. <http://oac.dsni-qf.uz>